

**BOSHLANG'ICH SINFLARDA NOAN'ANAVIY METODLARDAN
FOYDALANISH SAMARADORLIGI****Urinboyev Iskandar Azimboyevich***Samarqand viloyati Urgut tumani 90-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

Hozirgi paytda ta'lim jarayonida o'qitishning zamonaviy metodlari keng qo'llanilmoqda. Bunday metodlarni qo'llash o'qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. O'quv faoliyatida har bir ustoz darslarni kreativlik ruhida tashkil etishi va yangi g'oyalarni amalda sinashga intilishi kerak. Har bir dars o'qituvchi, o'quvchi uchun ijod, imkoniyat darsi hisoblanadi. O'quvchilar ichida yotgan qobiliyatlarni ochishda STEAM texnologiyasi qo'l keladi. STEAM ta'limi o'zi nimani anglatadi? STEAM – tabiiy fanlar, texnologiya, muhandislik, san'at va matematika fanlarini uyg'unlikda o'qitish uslubidir. STEAM texnologiyasida nazariy va amaliy bilimlar uyg'unligiga e'tibor qaratiladi. STEAM ta'lim muhitida bolalar bilimga ega bo'ladilar va darhol undan foydalanishni o'rganadilar. STEAM yondashuvi bolalarni tajribalar o'tkazishga, modellar tuzishga, mustaqil fikrlashga, g'oyalarni ilgari surishga undaydi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ham maktablarda STEAM to'garaklarini tashkil kerakligini ta'kidlab o'tdi. Bu borada Janubiy Koreya STEAM fanlarini o'qitish bo'yicha yetakchi davlatlardan hisoblanadi. Bu yil Koreya Respublikasi STEAM mutaxassislarini tashrif buyurib, o'z tajribalari bilan o'rtoqlashadi.

Umuman, har bir darsning maqsadi o'quvchini bilishga, mustaqil fikrlashga, izlanishga, g'oyalarni ilgari surishga o'rgatadi. O'qituvchi o'quv materiallari mazmunini ochib berishda "Tog'ri va notog'ri" mulohaza, "Notog'ri jumla", "O'qib ko'ring-chi", "Raqamli joylashuv", "Kichik guruhlarda ishlash", "Bahs-munozara", "Muammoli vaziyat", "Loyiha" kabi metodlarini qo'llasa, ta'lim oluvchilarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undagan bo'ladi. Hozirgi kunda muammoli ta'lim texnologiyalaridan ham samarali foydalanish kerak. Muammoli ta'lim texnologiyalari o'quvchi faoliyatini faollashtirish va jadallashtirishga asoslangan. Muammoli ta'lim o'quvchilarning ijodiy tafakkuri va ijodiy qobiliyatlarini o'stirishda jiddiy ahamiyatga ega. Muammoli ta'limning bosh maqsadi o'quvchilarning muammoni to'liq tushunib etishiga erishish va ularni hal eta olishga o'rgatishdan iborat. O'qituvchi darsda muammoni qo'yadi va uni yechimini o'quvchilar bilan birga topadi. O'qituvchi xato fikrlarni aniqlab boradi. O'quvchilar xato fikrlariga nisbatan to'g'ri fikrni o'qituvchi tomonidan yaqqol mantiqiy asoslangan shaklda bayon qilish yoki tushuntirish orqali o'quvchi uchun muammoli vaziyat yaratiladi va o'quvchini o'z xatolarini o'zi tuzatishiga yo'naltiriladi.

O'qituvchi pedagogik texnologiyalarning eng asosiy ishtirokchisi hisoblanadi. Shuning uchun uning kasbiy bilim, ko'nikma, malaka va mahoratini muntazam oshirib borish, bu maqsadlar uchun zarur sharoitlarni yaratib borish lozim. O'qituvchi faoliyati ta'lim mazmuni to'liq va samarali bajarish orqali ta'lim maqsadini amalga oshiradi. Bu vazifalarni o'quvchilarga chuqur va puxta ta'lim-tarbiya berish orqali amalga oshirish mumkin. Metodlar, vositalar pedagogik texnologiya jarayonini harakatga keltiruvchilar hisoblanadi. Ularni qanchalik to'g'ri va sifatli qo'llanishi kutilayotgan natijaning qanday

darajada bo`lishini hal qiladi. Ular har xil sharoitlarga moslashuvchan bo`lishi, zarur hollarda kreativ yondashib yangilab borish nazarda tutiladi.